

**RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA EMOJI VA
STIKERLARNING LINGVO-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI:
O'ZBEK SEGMENTI TAHLILI**

Farg'ona davlat universiteti

4-kurs talabasi Yoqibova Salomatxon

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi – emoji-lingvistika doirasida ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayoni tahlil qilinadi. Emojilarning shunchaki hissiyot ifodasi emas, balki nutqiy muloqotning tarkibiy qismi, ma'no yuklovchi va ohangni belgilovchi lisoniy birlik sifatidagi o'rni o'zbek tili misolida tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli tilshunoslik, emoji, piktografik yozuv, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, vizual kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoq tili.*

Abstract: *This article analyzes the process of communication in social networks within the framework of a new direction of modern linguistics - emoji-linguistics. The role of emojis as not just an expression of emotions, but as a component of speech communication, as a linguistic unit that carries meaning and sets the tone, is studied on the example of the Uzbek language.*

Keywords: *Digital Linguistics, Emoji, Pictographic Writing, Pragmatics, Cognitive Linguistics, Visual Communication, Social Network Language.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс общения в социальных сетях в рамках нового направления современной лингвистики – эмодзи-лингвистики. На примере узбекского языка изучается роль смайлов как не просто выражения эмоций, а как компонента речевого общения, как языковой единицы, несущей смысл и задающей тон.*

Ключевые слова: *цифровая лингвистика, эмодзи, пиктографическое письмо, прагматика, когнитивная лингвистика, визуальная коммуникация, язык социальных сетей.*

Kirish

Bugungi kunda muloqotning virtual makonga ko‘chishi tilning lisoniy va nolisoniy vositalari o‘rtasidagi chegarani yo‘qotmoqda. O‘zbek tilshunosi N.Mahmudov ta’kidlaganidek, “til – nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri va madaniyatining ko‘zgasidir”. Raqamli muloqotda ushbu ko‘zgu vazifasini endilikda emojilar va stikerlar bajarmoqda. Ular matndagi hissiy bo‘shliqni to‘ldiruvchi “virtual mimika va pantomimika” vazifasini o‘taydi. Emojilar (yaponcha: e – rasm, moji – belgi) zamonaviy piktografik yozuvning yangi bosqichi bo‘lib, ular nutqning og‘zaki va yozma shakllari orasidagi masofani qisqartirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada emojilarning quyidagi uchta yangi funksiyasi asoslab beriladi:

1. Emojilarning kontekstual semantikasi. An’anaviy so‘zlarda bo‘lgani kabi, emojilarda ham ma’no ko‘chishi (metonimiya va metafora) kuzatiladi. Masalan, “Olov” (🔥) emoji o‘zining to‘g‘ri ma’nosidan uzoqlashib, o‘zbek segmentida "ajoyib", “zo‘r”, “yuqori darajadagi” degan sifatlovchi ma’nolarini anglatadi. Shuningdek, “Kulib turgan yuz” (😄) emoji ko‘pincha ochiq muloqotda “piching”, “istehzo” yoki “vaziyatning noqulayligi”ni ifodalash uchun qo‘llanila boshladi. Masalan, o‘zbek foydalanuvchilari orasida “paxsa devor” (🧱) yoki “qulf” (🔒) emojilari ba’zan “gap tamom”, “sir saqlansin” degan kontekstual ma’nolarni anglatadi.

2. Emojilar tinish belgilarining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida. Hozirgi yoshlar nutqida gap oxirida nuqta qo‘yish ba’zan “sovuqqonlik” yoki “g‘azab” belgisi sifatida qabul qilinadi. Buning o‘rniga turli emojilar (masalan, 😊, ✨) gapni yakunlash va suhbatdosh bilan ijobiy aloqani saqlab qolish uchun xizmat qilmoqda. Nuqta o‘rniga ishlatilayotgan (🙏, 👍, 😊) belgilari gapning ohangini yumshatadi. Bu esa punktuatsiyaning vizuallashuv jarayonidan dalolat beradi.

Pragmatik manipulyatsiya va evfemizmlar. O‘zbek mentalitetida ba’zi noqulay yoki ochiq aytish qiyin bo‘lgan fikrlar emojilar yordamida yumshatiladi. Masalan, rad javobini berishda yoki tanbeh berishda qo‘shilgan “Maymun” (🐒)

yoki “uyalغان yuz” (😬) emoji-lari gapning keskinligini kamaytiradi (lingvistik yumshatish).

Xulosa

Emoji-lingvistika – bu tilning tanazzuli emas, balki uning yangi bosqichdagi adaptatsiyasidir. Emojilar yozma nutqqa og‘zaki nutqning intonatsiyasi, mimikasi va tempini olib kiradi. Aynan hozir har daqiqasi g‘animat bo‘layotgan, shiddat bilan suzib ketayotgan vaqtimizni tejash uchun hamda fikrimizni qisqa va lo‘nda suhbatdoshimizga yetkazishda katta o‘rin egallamoqda. O‘zbek tilining raqamli muhitdagi taraqqiyotini o‘rganishda ushbu vizual vositalarni alohida lisoniy birlik sifatida tan olish va ularning lug‘atlarini (Emoji-dictionary) shakllantirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov Nematjon. Til va nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Crystal David. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
3. Danesi Marcel. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. – London: Bloomsbury Publishing, 2016.
4. Evans Vyvyan. The Emoji Code: The Linguistics Behind Smiley Faces and Scaredy Cats. – London: Picador, 2017.
5. Yus Farid. “Not All Emoticons Are Created Equal.” – Journal of Pragmatics, 2011.
6. Herring Susan. Computer-Mediated Communication: Linguistic, Social and Cross-Cultural Perspectives. – Amsterdam: John Benjamins, 1996.
7. Baron Naomi S.. Always On: Language in an Online and Mobile World. – Oxford University Press, 2008.
8. Unicode Consortium. Unicode Emoji Charts and Documentation. – <https://unicode.org/emoji/>

9. Tagliamonte Sali A., Denis Derek. “Linguistic Ruin? LOL! Instant Messaging and Teen Language.” – American Speech Journal, 2008.
10. Normatov Umarali. **Adabiy tanqid asoslari.** – Toshkent: Fan, 2007.
11. Pragmatics bo‘yicha zamonaviy ilmiy maqolalar to‘plami. – Turli xalqaro jurnallar (Journal of Pragmatics, Discourse Studies va boshqalar).
12. Cognitive Linguistics doirasidagi tadqiqotlar. – Cambridge University Press nashrlari.